

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR UCHUN XAVFSIZ HAYOT TARZINI YARATISHDA MARKAZLARNING O'RNI.

Gapparova Zilola Ne'mat qizi

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus

ta'lim metodikalari kafedrasi o'qituvchisi

Qulmatova Gulbahor To'lqin qizi

Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari

"B" guruh tinglovchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan xavfsizlikka oid markazlarning faoliyatini o'rganish va tahlil qilish. Ushbu markazlar orqali bolalarda xavfsizlik madaniyati, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining shakllanish darajasini aniqlash. Markazlardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha innovatsion metodikalar va tavsiyalar ishlab chiqish. Ota-onalar va pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyatini kuchaytirish orqali bolalarda xavfsizlik ongini yuksaltirishga ko'maklashish. Ushbu markazlar orqali bolalar hayotiy vaziyatlarda qanday harakat qilishni, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni o'rganadilar. Shuningdek, ular o'zlarining ijtimoiy tajribalarini kengaytirish, muammoli vaziyatlarni anglash va hal qilish ko'nikmalarini egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: "Nutiqni o'stirish" Qurush yasash va konsturaksiyalash, syujetli rolli o'yinlar, Fan va Tabiyat, San'at markazlari.

Abstract: This article aims to study and analyze the activities of safety centers established in preschool educational organizations. To determine the level of formation of safety culture, social activity and independent thinking skills in children through these centers. To develop innovative methodologies and recommendations for increasing the effectiveness of the use of centers. To help raise safety awareness in children by strengthening the joint activities of parents and educators. Through these centers, children learn how to act in life situations, follow safety rules. They also have the opportunity to expand their social experience, acquire skills in understanding and solving problem situations. Therefore, this topic is extremely relevant not only theoretically, but also practically.

Keywords: "Developing Speech" Building and Construction, Story Role-Playing Games, Science and Nature, Art Centers.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning xavfsiz hayot tarzini shakllantirishda pedagogik markazlarning tutgan o'рни va ularning ta'sirchanligini tahlil qilish, shuningdek, xavfsizlik madaniyatini tarbiyalashda ilg'or yondashuvlar va samarali metodlarni aniqlash. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xavfsiz hayot tarzini shakllantirishda tematik markazlarning o'рни va funksional imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning bolalarning rivojlanishiga ta'sirini aniqlash hamda pedagogik faoliyatda samarali qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Maktabgacha ta'lim tizimida xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish. Bolalar uchun xavfsiz hayot tarzini yaratishda foydalanilayotgan markazlarning turlari va ularning mazmun-mohiyatini tahlil qilish. Bolalar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati, qonunlar, pedagogik yondashuvlar va ilg'or tajribalarni o'rganish.

Faoliyat mavzusi: "Ehtiyotkor piyoda xaftasi"

Ta'limiy maqsad: Bolalarni svetofo, yo'l belgisi, piyodalar yo'lagi kabi yo'l harakati vositalari bilan tanishtirish. Yo'l harakati qoidalarini bolalarga tushunarli va sodda tarzda o'rgatish. "Qizil — to'xtash", "Yashil — yurish" kabi asosiy tushunchalarni eslab qolish va to'g'ri qo'llashga o'rgatish. Yo'lni to'g'ri va xavfsiz kesib o'tish tartibini anglatish. Bolalarning og'zaki nutqini, eslab qolish va ifoda qilish qobiliyatlarini rivojlantirish. Yo'l harakati belgilarining nomi va vazifasini biladi. Svetofo ranglariga mos harakatni bajaradi.

Tarbiyaviy maqsad: Bolalarda yo'l harakati qoidalariga nisbatan hurmat, mas'uliyat va ehtiyotkorlik hissini shakllantirish. O'z hayoti va boshqalarning xavfsizligiga befarq bo'lmaslik, e'tiborli bo'lishga odatlantirish. Jamoada harakat qilish, navbatni kutish, o'z fikrini tartibli va madaniyatli tarzda ifoda etishga o'rgatish. Kattalar ko'rsatmalariga amal qilish, tartib-intizomga rioya qilish ko'nikmasini tarbiyalash. Har bir bola "men ham yo'l qoidalariga amal qilaman" degan ichki mas'uliyat hissini shakllantirish.



Rivojlantiruvchi maqsad: bolalarning tafakkur, nutq, xotira, kuzatuvchanlik va motorik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bolalarning ranglarni ajratish, ularni svetofor chiroqlari bilan bog'lay olish qobiliyatlarini rivojlantirish. "To'xtash", "Yurish", "Kutish" kabi tushunchalarni anglash va ularga mos harakat qilish ko'nikmalarini mustahkamlash. Og'zaki nutqni rivojlantirish — savolga javob berish, o'z fikrini to'liq ifoda qilish, yo'l harakati belgilarini tasvirlashga o'rgatish. Diqqatni jamlash, eshitib anglash, eslab qolish va kerakli vaqtda qo'llay olish qobiliyatlarini rivojlantirish. Mayda va yirik harakatlarni muvofiqlashtirish — belgilar, svetofor, yo'l maketlarini yasash yoki joylashtirish orqali motorikani rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: Svetofor modeli Yo'l belgilarining rasmlari yoki kichik belgilar. Rasmi ko'rgazmalar. Mavzuga oid audio yoki video material.

O'yin "Svetofor nima deydi?"

Bolalarda yo'l harakati qoidalariga rioya qilish ko'nikmasini shakllantirish. Ranglarni farqlash, harakatni boshqarish va tezkor fikrlashni rivojlantirish. Diqqat, eshitish va tezkor javob berish ko'nikmalarini kuchaytirish. O'yin boshlanishidan oldin tarbiyachi bolalarga svetofor ranglarining ma'nosini eslatadi:

Qizil – to'xtash

Sariq – tayyorlanish

Yashil – yurish

Bolalar aylana yoki chiziq bo'ylab turadi (yoki ochiq joyda erkin turgan bo'ladi). Tarbiyachi "Svetofor nima deydi?" deb so'raydi va ranglardan birini aytadi (yoki rangli kartani ko'rsatadi).

Bolalar quyidagi harakatlarni bajaradilar:

"Qizil!" – hamma qotib qoladi, harakatlanmaydi.

"Sariq!" – bolalar qo'llarini belga qo'yib, joyida turib "tayyor" holatda kutadi.



“Yashil!” – yurishni boshlaydilar yoki belgilangan yo‘nalishda yugurib o‘tadilar. Tarbiyachi ranglarni tez-tez, aralashtirib aytadi. Bolalar noto‘g‘ri harakat qilsa, quvnoq tarzda unga "ehtiyotkor bo‘l!" deb maslahat beriladi.

O‘yinni jonlantirish uchun:

Rangli doira yoki bayroqchalar (qizil, sariq, yashil) ishlatilishi mumkin.

O‘yin musiqali fon ostida o‘tkazilsa, yanada qiziqarli bo‘ladi.

Faol qatnashgan bolalar rag‘batlantiriladi (yulduzcha, medal, qarsak va h.k.).

Talimiy faoliyatning borishi: Tarbiyachi: Bolajonlar bugun biz juda muhim mavzu haqida suhbatlashamiz. Sizlar piyodalar haqida eshitganmisiz?

Bolalar: Ha! Eshitganmiz! Piyoda – odam degani!

Tarbiyachi: To‘g‘ri, bolajonlar! Piyoda — bu yo‘lda mashinasiz yuradigan odam.

Xo‘sh, piyodalar yo‘lda yurayotganda nimalarga e‘tibor berishlari kerak?

Bolalar: Svetoforga! Mashinaga! Yo‘l chizig‘iga!

Tarbiyachi: Ajoyib! Qani ayting-chi, svetoforda nechta chiroq bo‘ladi?

Bolalar: Uchtasi! Qizil, sariq, yashil!

Tarbiyachi: Juda to‘g‘ri! Qizil chiroq yonganda nima qilamiz?

Bolalar: To‘xtaymiz! O‘tmaymiz!

Tarbiyachi: Yashil chiroqchi?

Bolalar: Yuramiz! Yo‘lni kesib o‘tamiz!

Tarbiyachi: Juda zo‘r aytdingiz! Endi rasmga qaraylik: bu yerda svetofor, mashina va bolalar bor. Bolalar qanday harakat qilishyapti?

Bolalar: Ular svetoforga qarayapti. Yo‘lni chiziqdan o‘tyapti. To‘xtashyapti.

Tarbiyachi: Ha, ular “zebra chiziqlari”dan o‘tyapti. Ana shunday chiziqli joyga nima deyiladi?

Bolalar: Piyodalar o‘tish joyi!

Tarbiyachi: Barakalla! Demak, biz yo‘ldan qanday o‘tishni, nimaga e‘tibor berishni bilamiz. Endi sizlarga savol: siz piyoda bo‘lsangiz, yo‘lda qanday yurardingiz?



Bolalar: Qoidaga amal qilaman. Svetoforga qarayman. Mashinadan ehtiyot bo'laman.

Markaz:Qurush yasash va konsturuksiyalash.

Maqsad: Bolalarni svetofor, piyodalar o'tish joyi, yo'l belgilari, transport vositalarining tuzilishi va joylashuvi bilan tanishtirish. Qurilish materiallari (kubiklar, lego, mozaika va boshqalar) yordamida "yo'l maketi", "svetofor", "piyodalar chizig'i" va boshqa ob'ektlarni yasashga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Bolalarda yo'l harakati qoidalariga nisbatan hurmat, ehtiyotkorlik va mas'uliyat hissini tarbiyalash. Bolalarning fazoviy tasavvuri, ijodiy tafakkuri va konstruktiv fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Qurilish materiallari yordamida oddiy konstruksiyalarni (svetofor, piyodalar o'tish joyi, yo'l belgisi, mashina) yaratish ko'nikmasini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Qurilish materiallari, lego, konstruktor to'plamlari, plastmassa yoki yog'och kubiklar, mozaika va magnitli qurilish detallari.

O'yin. "Yo'lni to'g'ri kesib o'tamiz"

O'yin maqsadi: Bolalarda yo'l harakati qoidalarini eslab qolish va amaliyotda to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish. Svetofor ranglarini farqlash va ularning ma'nosiga mos harakat qilishga o'rgatish. Qurilgan yo'l maketidan to'g'ri foydalanish, diqqatni jamlash, navbatni kutish va o'zini tutishni o'rganish.

Qurilgan yo'l maketi (svetofor, piyodalar o'tish joyi, yo'l belgilarini o'z ichiga olgan) O'yinchoq mashinalar va piyoda figuralari (yoki bolalarning o'zlari rollarda) Rangli bayroqchalar yoki svetofor rangli kartochkalar (qizil, sariq, yashil).

O'ynalishi: Tarbiyachi bolalarni yo'l maketi yoniga chorlaydi. Bolalar navbat bilan piyoda rolini, boshqalar mashina rolini bajaradilar. Tarbiyachi svetofor rangini ko'rsatadi yoki aytadi:

Qizil – piyodalar to'xtaydi, mashinalar harakatlanadi.



Sariq – tayyor turish.

Yashil – piyodalar yo'lining "zebra" qismidan kesib o'tadi, mashinalar to'xtaydi.

Tarbiyachi yo'l harakati qoidalarini izohlab turadi, bolalar esa to'g'ri yoki noto'g'ri harakatni bajarishadi.

O'yin oxirida faol qatnashgan bolalar rag'batlantiriladi, xatoga yo'l qo'yg'nlarga esa yumshoq tushuntirish beriladi:

Markaz:Syujetli rolli o'yinlar.

Maqsad:Bolalarga yo'l harakati qoidalarining asosiy tushunchalarini (svetofor ranglari, piyodalar yo'lagi, yo'l belgilarining ma'nosi) o'rgatish.Svetofor ishoralari va yo'l belgilariga qarab to'g'ri harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish.

O'yin: "Yo'lni to'g'ri kesib o'tamiz"

Bolalar shahar ko'chasidagi hayotni tasvirlaydilar: piyodalar, haydovchilar, svetofor va yo'l harakati inspektori rollarida ishtirok etib, xavfsiz harakat qilishni mashq qiladilar.

Tarbiyachi rollarni taqsimlaydi:

2–3 nafar piyoda (maktabga, bog'chaga ketayotgan bolalar sifatida)

1–2 nafar haydovchi

1 nafar yo'l harakati inspektori

1 bola yoki tarbiyachi svetofor rolida

Scenariy bo'yicha harakatlar boshlanadi:

Svetofor ranglarni aytadi:

"Qizil — to'xtaymiz, sariq — tayyorgarlik, yashil — yuramiz."

Piyodalar svetoforga qarab yo'lni kesib o'tishadi.

Haydovchilar svetofor rangiga qarab mashinalarini to'xtatadilar yoki haydashadi.

Inspektor esa to'g'ri yoki noto'g'ri harakatni kuzatib, bolalarga muloyimlik bilan izoh beradi.



Tarbiyachi faoliyatni kuzatadi va o'rtada savollar beradi:

“Svetofof qizil yonayotganda nima qilamiz?”

“Piyodalar faqat qayerdan o'tadi?”

“Mashina kelayotgan bo'lsa, qanday harakat qilamiz?”

O'yindan keyin xulosa chiqariladi: Bolalar nimalarni o'rganganini aytadilar va xatti-harakatlar muhokama qilinadi.

O'yinning foydasi:

Bolalar real hayotga yaqin sharoitda yo'l harakati qoidalarini mustahkamlaydi.

Nutqi, tafakkuri, diqqat-e'tibori va ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanadi.

Talimiy faoliyatning borish:

Tarbiyachi bolalarni do'stona kutib oladi, musiqali salomlashuv orqali ijobiy ruh yaratadi:

“Salom, bolajonlar! Bugun biz juda qiziqarli sarguzashtga o'tlanamiz!”

Diqqatni jamlash uchun qisqa o'yin:

“To'g'ri – noto'g'ri”

(Masalan: “Svetofof 4 ta rangdan iborat — to'g'rimi?”, “Yo'l faqat mashinalar uchun — bu to'g'rimi?”)

Tarbiyachi bolalardan savollar orqali mavzuga kiradi:

“Yo'ldan qanday o'tamiz?”

“Svetofof nimaga kerak?”

“Sizlar hech yo'l harakati inspektorini ko'rganmisiz?”

Rasmlar, piktogrammalar yoki qisqa video yordamida yo'l belgilarini, svetofof ranglarini, xavfsiz piyoda yo'lagini tushuntirib beradi.

Qurish-konstruktor ishlari:

Guruhlarga ajratiladi:

1-guruh: svetofof yasaydi

2-guruh: yo'l va piyoda yo'lagi chizadi

3-guruh: yo'l belgilari va mashina maketlari yasaydi



Har bir bola o'z ishini taqdim etadi, nima yasaganini tushuntiradi.

Suyujetli-rolli o'yin: "Yo'lni to'g'ri kesib o'tamiz"

Rollar taqsimlanadi:

Piyodalar (maktabga, uyga ketayotgan bolalar)

Haydovchilar (mashinada ketayotganlar)

Yo'l harakati inspektori

Svetofofor rolini bolalar yoki tarbiyachi bajaradi

Ssenariy bo'yicha o'yin boshlanadi:

Svetofofor rangiga qarab piyodalar harakat qiladi

Haydovchilar svetofofor qoidasiga amal qiladi

Inspektor noto'g'ri harakatlarni ko'rsatadi va tushuntiradi

Tarbiyachi jarayonni kuzatadi, kerakli vaqtda to'xtatib, savollar beradi:

"Bu yerda kim to'g'ri harakat qildi?"

"Qanday rangda yo'l kesib o'tamiz?"

Yakuniy qism (5 daqiqa)

Tarbiyachi bolalarning ishtirokini baholaydi, maqtov bildiradi.

O'zaro muhokama:

"Bugun nimalarni o'rgandik?"

"Endi yo'ldan o'tishda nimalarga e'tibor beramiz?"

Yakuniy shior:

> "Har bir bola — ehtiyotkor piyoda!"

Rag'batlantirish: yaxshi qatnashgan bolalarga belgilar (masalan, "Ehtiyotkor Piyoda" yorlig'i) beriladi.

Markaz: "Fan va Tabiyat".

Maqsad: bolalarga atrof-muhit va yo'l harakati muhiti (yo'llar, svetofoforlar, yo'l belgilarining joylashuvi) haqida bilim berish. Texnik vositalar (svetofofor, yo'l belgilarining vazifasi va ishlash tamoyili) bilan tanishtirish. Bolalarda yo'l



harakati qoidalariga hurmat bilan qarash, ularga bo'ysunish odatini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Svetofor maketi yoki rangli doiralar (qizil, sariq, yashil). Yo'l belgilarining maketlari (piyoda yo'li, "To'xtang", "Diqqat – bolalar" va h.k.) Piyoda yo'lagi (zebra) – qog'oz yoki matodan yasalgan model. O'yinchoq mashinalar yoki karton avtomobillar. Magnetli doska yoki A3 formatdagi yo'l maketi – yo'l harakati holatlarini ko'rsatish uchun. Rasmlar, slaydlar yoki video materiallar – svetofor, belgilar, xavfsizlik qoidolari aks etgan.

Oyin: "Svetoforga Qarab Harakat Qil!"

Bolalar yo'l harakati qoidalarini o'rganishadi, svetofor ranglariga mos harakat qilishni mashq qilishadi. Bu o'yin bolalarda kuzatuvchanlikni, e'tiborni va harakatni boshqarishni rivojlantiradi.

Svetofor ranglariga mos harakat qilishni o'rgatish;

Bolalarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish;

Tarbiyachi yoki bola "svetofor" rolini oladi va svetoforning ranglarini navbatma-navbat aytadi:

"Qizil — to'xtab tur!"

"Sariq — tayyor tur!"

"Yashil — yur!"

Bolalar ochiq maydon (zal yoki bog'cha hovlisi)da turadi.

Tarbiyachi rangni aytishi bilan bolalar mos harakatni bajaradi:

Yashil — yurishadi yoki yugurishadi;

Qizil — to'xtab harakatsiz turishadi;

Sariq — yurishga tayyor holatda kutishadi.

Agar bola noto'g'ri harakat qilsa (masalan, qizilda yursa), tarbiyachi uni muloyimlik bilan to'xtatadi va tushuntirish beradi.

O'yinning rivojlantiruvchi jihatlari:



Diqqatni jamlash, buyruqlarni eslab bajarish, jismoniy faollik orqali tafakkurni rag'batlantirish, atrof-muhit xavfsizligini tushunish.

"San'at markazi "

Maqsad: bolalarni yo'l harakati belgilarini, svetofor ranglarini, zebra yo'laklarini rasm orqali ifodalashga o'rgatish, tasviriy faoliyat orqali xavfsizlik qoidalarini anglash va ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirish, bo'yoqlar, rangli qog'ozlar, plastilin yoki boshqa san'at vositalaridan foydalangan holda real hayotdagi predmetlarni yaratish malakasini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: Rangli qog'ozlar (qizil, sariq, yashil va boshqa ranglar – svetofor va belgilar uchun). Oq karton yoki A4 qog'ozlar – asosiy ish maydoni uchun qaychi va elim – kesish va yopishtirish uchun Bo'yoqlar (gouache, akvarel yoki flomasterlar) Yelimli lenta yoki, Plastilin – svetofor yoki belgi shakllarini yasash uchun shablon va andazalar (svetofor, yo'l belgilari, piyodalar yo'lagi va boshqalar). O'yinchoq mashinalar yoki maketlar – maketga jonlilik qo'shish uchun

Illustratsiyalar yoki rasmlar kartalar – bolalarga misol sifatida ko'rsatish uchun tozalik uchun salfetaklar yoki sochiq – mashg'ulotdan keyin qo'llarni artish uchun.

O'yin: "To'g'ri belgini tanla!"

Bolalarni yo'l harakati belgilari bilan tanishtirish, belgilarni shakl, rang va vazifasiga qarab ajratishni o'rgatish, e'tibor, tafakkur va kuzatuvchanlikni rivojlantirish.

Kerakli materiallar: Yo'l harakati belgilarining rasmlari (to'g'ri va noto'g'ri aralash holda) 2 ta savat yoki karton quti (biri "To'g'ri belgi", biri "Noto'g'ri belgi" deb belgilangan).

O'ynalish tartibi:

Tarbiyachi bolalarga yo'l harakati belgilari aks etgan kartochkalarni ko'rsatadi.

Har bir bola navbat bilan chiqib, belgini ko'radi va:



To'g'ri yo'l harakati belgisini topsa, uni "To'g'ri belgi" qutisiga tashlaydi.

Agar noto'g'ri bo'lsa (masalan, hayvon rasmi, geometrik shakl va h.k.), uni "Noto'g'ri belgi" qutisiga tashlaydi.

Har bir harakatdan keyin tarbiyachi savol beradi:

"Bu belgi nimani anglatadi?"

"Bu belgini qayerda ko'rganmiz?"

O'yin yakunida eng ko'p to'g'ri belgi tanlagan bolalar rag'batlantiriladi (yurakcha, yulduzcha yoki maqtov so'zi bilan).

Rivojlantiruvchi jihatlar: Vizual eslab qolish, kategoriyalarga ajratish malakasi, mavzuni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun, eng avvalo, ularning xavfsiz hayot tarziga oid tushunchalari shakllantirilishi lozim. Ayniqsa, yo'l harakati qoidalari, svetofor ranglari, yo'l belgilari, va piyodalar yurish madaniyati — bu yoshdagi bolalarning kundalik hayotida bevosita duch keladigan holatlardir. Xulosa qilib aytganda o'z va boshqalarning xavfsizligini ta'minlash mas'uliyatini his etishi uchun mavzuni samarali yoritishda markazlar faoliyatining o'rni beqiyosdir. Har bir markaz orqali bolalar mavzuni turli burchaklardan o'zlashtiradilar. Shu orqali bolalarda kuzatuvchanlik, fikrlash, tahlil qilish, axloqiy baholash, ijodkorlik, jamoada ishlash, mustaqil fikrlash kabi zaruriy fazilatlar rivojlanadi. Eng asosiysi, bu faoliyatlar orqali bolalarda o'z hayotiga nisbatan mas'uliyatli yondashuv, o'zini ehtiyot qilish, yo'l qoidalariga bo'ysunish odatga aylanadi. Bu esa kelajakda ularning nafaqat sog'lom va xavfsiz hayot kechirishi, balki boshqalar hayotiga ham befarq bo'lmasligiga zamin yaratadi.



Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi – Maktabgacha ta'limning davlat o'quv dasturi (2022–2026 yillar uchun).
2. M. Murodova, D. Jo'rayeva – “Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan yo'l harakati qoidalari bo'yicha ishlash metodikasi”, Toshkent, 2020.
3. Abdullaeva – “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish”, Toshkent, “Ilm Ziya”, 2021.
4. X. Yuldasheva – “Konstruktor markazida ishlash texnologiyalari”, Toshkent, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Yo'l harakati xavfsizligi xizmati materiallari va tavsiyalari.
6. Metodik qo'llanma: “Bolalarning yo'l harakati madaniyatini shakllantirish”, MTT pedagoglari uchun uslubiy qo'llanma, 2022.

BOLALARNING IJODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIR KO'RSATISH OMILLARI.

Yusupova Gulchehra Mehribekovna

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari

“B” guruh tinglovchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarning ijodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Jumladan, oilaviy muhit, ta'lim tizimi, psixologik omillar, ijtimoiy-madaniy sharoitlar va zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ijodiy fikrlashni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar va metodlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ijodiy rivojlanish, pedagogik omillar, ta'lim va tarbiya, ijtimoiy muhit, ijodiy fikrlash.

Abstract: This article analyzes the main factors influencing the creative development of children. In particular, the importance of the family environment, the education system, psychological factors, socio-cultural conditions and modern technologies is highlighted. Also, pedagogical approaches and methods that serve to stimulate creative thinking are considered.